



Lev Tolstoyning “Faqirlar” hikoyasida ruhiy boylik va moddiy qashshoqlik qarama-qarshiligi

**Pardayeva Shabbona
Norulot qizi**

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy
pedagogika universiteti, o‘zbek tili va adabiyoti, 1-
bosqich talabasi*

**Burxonova Feruza
Abdurazzoqovna**

*Nizomiy nomidagi O‘zMPU dotsenti, filologiya
fanlari falsafa doktori (PhD)*

Annotasiya: Ushbu maqolada buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoyning “Faqirlar” nomli hikoyasi ilmiy va badiiy jihatdan tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida asarda ilgari surilgan insonparvarlik, rahm-shafqat va ruhiy boylik g‘oyalari ochib beriladi. Tadqiqotning natijalari hikoyaning ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatini asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Lev Tolstoy, faqirlik, axloq, ruhiy boylik, insonparvarlik, tarbiyaviylik, kulminatsiya.

Аннотация: В данной статье проводится научно-художественный анализ рассказа “Бедняки” великого русского писателя Льва Толстого. В процессе анализа раскрываются идеи гуманизма, сострадания и духовного богатства, выдвинутые в произведении. Результаты исследования служат обоснованию социально-познавательной значимости рассказа.

Ключевые слова: Лев Толстой, бедность, мораль, духовное богатство, гуманизм, поучительный характер, кульминация.

Abstract: This article analyzes the story "The Poor" by the great Russian writer Leo Tolstoy from a scientific and artistic perspective. In the process of analysis, the ideas of humanity, compassion, and spiritual wealth put forward in the work are revealed. The results of the study serve to substantiate the social and educational significance of the story.

Keywords: Leo Tolstoy, poverty, morality, spiritual wealth, humanity, educationalism, culmination.

Lev Nikolayevich Tolstoy rus adabiyotining yirik namoyandalaridan biridir. U jahon adabiyotida ham inson ruhiyati, axloqiy tanlov va jamiyat muammolarini chuqur yoritgan adib sifatida alohida o‘rin egallaydi. Uning hajman kichik hikoyalari ham mazmunan boyligi va falsafiy chuqurligi bilan ajralib turadi. “Faqirlar” hikoyasi ham ana shunday asarlardan biri bo‘lib, unda inson qadr-qimmatini moddiy boylik bilan emas, balki qalb pokligi va rahm-shafqat bilan belgilanishi g‘oyalari ilgari suriladi.

Hikoya dengiz bo'yida yashovchi baliqchi Janna va uning eri haqida. Ular besh nafar farzandi bilan juda qashshoq holatda yashashadi, tirikchiligi zo'rg'a o'tadi. Farzandlari doim yupun, yoz-u qish birday yalangoyoq yurishadi. Bug'doy nonini ko'rish tugul, javdar nonini yeb turgani uchun ham shukur qilib yashashadi. Bir kuni kuchli bo'ron paytida Janna erini kutib o'tirib, yaqin atrofidagi qo'shnisi, beva ayol Simonning xolidan xabar olishga boradi. Aynan shu voqea orqali yozuvchi qo'shnichilik- bu shunchaki ijtimoiy muloqot shakli emas, balki, insonning oldidagi muqaddas mas'uliyat ekanligini ochib beradi. Bosh qahramon Janna u yerga borganida hikoyaning kulminatsiya jarayoni boshlanadi. Janna ichkariga kiradi va ne ko'z bilan qarasa, Simonni o'lik holatida topadi. Sarg'ish, jonsiz qo'l allanarsaga uzatilib, tushib ketgandek, poxolda osilib yotganini ko'radi. Shu yerning o'zida, murda onaning yonginasida eski ko'ylakka o'ralgan ikki go'dak uxlab yotardi. Tushunish qiyin emaski, bu yerda onasi jon berayotib, ularning oyog'ini eski ro'mol bilan o'rab, ustilariga ko'yagini tortib qo'yishga ulgurgani ko'rinib turadi. Simon o'limi yaqinlashganini sezgan lahzada o'zidan ko'ra bolalarini o'ylashi- bu asardagi eng oliy va drammatik nuqta hisoblanadi. Tolstoy bu detal orqali onalik fitratining o'limdan ham kuchli ekanini ko'rsatib beradi. Simonning bevaligi sababli, endi uning ikki farzandi to'liq qarovsiz qolgan edi. Buni ko'rgan Janna hech ikkilanmay, bu ikki go'dakni o'z uyiga olib keladi. Janna o'zining besh farzandi och qolishidan va erining nima deyishidan qo'rqa-da, yetimlarni bag'riga bosishi-bu onalik mehrining chegarasizligi va uning har qanday ijtimoiy qashshoqlikdan ustun turuvchi qudratidir.

Kutilmaganda eri charchab, dengizdan o'ljasiz qaytib keladi va Janna unga qo'shnisi Simonning vafot etganini aytadi. Eri darhol: "Biz ularning yetimlarini boqib olishimiz kerak, aka holda ularning holiga voy bo'ladi, borib bolalarni uyga olib kel",- deya xotiniga buyruq beradi. Shunda Janna chodirni ochadi va bolalarining yonida uxlab yotgan ikki go'dakni ko'rsatadi. Yozuvchi ushbu hikoya orqali haqiqiy boylik mol-dunyoda emas, balki qalbing sahovatliologida ekanligini yaqqol ko'rsatib beradi.

"Faqirlar" hikoyasida qahramonlar obrazlari asarning g'oyaviy va badiiy asosini tashkil etadi. Tolstoy faqir qahramonlar orqali insonparvarlik, rahm-shafqat va ruhiy boylik g'oyalarini chuqur va ta'sirchan tarzda yoritadi. Qahramonlarning og'ir hayot sharoitiga qaramay, insoniy fazilatlarining saqlab qolinishi asarning ahloqiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolstoy.L.N.Tanlangan asarlar.-Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
2. Karimov.N.Jahon adabiyoti tarixi.-Toshkent: Fan, 2012.
3. Qur'onov.D.Adabiyot nazariyasi asoslari.-Toshkent: Noshir, 2019.
4. Xudoyberdiyev.E.Adabiy tanqid va tahlil masalalari.-Toshkent: Fan, 2010.
5. Ismoilov.I.Rus va jahon adabiyoti,- Toshkent: O'qituvchi,2009.